



KICHIK BIZNESNI YURITISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHDA VUJUDGA KELADIGAN XATARLAR

PhD, prof. **Primov Muxiddin**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-7256-9090

m.primov@tsue.uz

Rizayeva Nilufar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-5690-1945

rizayevanilufar15@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli platformalardan foydalanishda yuzaga keladigan xatarlar va ularning iqtisodiyot, xavfsizlik hamda ijtimoiy hayotga ta'siri yoritilgan. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qanday farq qilishi, uning statistik jihatdan baholanishidagi muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalarda yuzaga keladigan xavflar – ijtimoiy muhit xatarlaridan tortib, moliyaviy firibgarliklar, kiberjinoyatlar, psixologik salbiy ta'sirlar va algoritmik manipulyatsiyalargacha batafsil ko'rib chiqilgan. O'zbekiston sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar, mavjud to'siqlar va xalqaro tajriba asosida amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar ham ko'rsatib o'tilgan. Internetdagi keng tarqalgan firibgarlik turlari va ularning real hayotdagi misollari orqali foydalanuvchilarni ogohlikka chaqirish asosiy e'tiborda turadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, raqamli iqtisodiyot, raqamli platformalar, elektron tijorat, internet firibgarligi, kiber jinoyatlar, fishing, ransomware, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellect, maxfiy ma'lumotlar, xavfsizlik xatarlari, deepfake, onlayn to'lovlar, platforma manipulyatsiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

РИСКИ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ ДЛЯ ВЕДЕНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА

PhD, проф. **Примов Мухиддин**

Ташкентский государственный экономический университет

Ризаева Нилуфар

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются риски, возникающие при использовании цифровых платформ, и их влияние на экономику, безопасность и общественную жизнь. Анализируются различия в развитии цифровой экономики между развитыми и развивающимися странами, а также сложности, связанные с её статистической оценкой. Кроме того, подробно рассматриваются риски, возникающие в цифровом пространстве – от угроз в социальной среде до финансовых махинаций, киберпреступности, психологических последствий и манипуляций алгоритмами. Также рассматриваются задачи по развитию электронной коммерции в Узбекистане, существующие препятствия и международный опыт. Приводятся реальные примеры распространённых видов интернет-мошенничества с целью повышения осведомлённости и цифровой грамотности пользователей.

Ключевые слова: малый бизнес, цифровая экономика, цифровые платформы, электронная коммерция, интернет-мошенничество, киберпреступность, фишинг, вымогательские программы, социальные сети, искусственный интеллект, персональные данные, риски безопасности, дипфейк, онлайн-платежи, манипуляции платформ, информационно-коммуникационные технологии.

RISKS ARISING FROM THE USE OF DIGITAL PLATFORMS FOR SMALL BUSINESS

PhD, prof. **Primov Muxiddin**
Tashkent State University of Economics
Rizayeva Nilufar
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article explores the risks associated with the use of digital platforms and their impact on the economy, security, and social life. It analyzes the differences in the development of the digital economy between developed and developing countries, as well as the challenges of measuring it statistically. Furthermore, the article provides a detailed overview of risks related to digital platforms – from social environment threats to financial fraud, cybercrimes, psychological impacts, and algorithmic manipulations. Specific measures for developing e-commerce in Uzbekistan, existing obstacles, and international experience are also discussed. Real-life examples of common types of internet fraud are presented to raise public awareness and digital literacy.

Keywords: small business, digital economy, digital platforms, e-commerce, internet fraud, cybercrimes, phishing, ransomware, social networks, artificial intelligence, personal data, security risks, deepfake, online payments, platform manipulation, information and communication technologies.

Kirish.

Jahon global axborot iqtisodiyoti sharoitida faqatgina rivojlangan sof bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlardagina raqamli iqtisodiyoti tez o'sadi, aksincha an'anaviy shartnomalar asosida faoliyat yuritayotgan sof bozor iqtisodiyotiga o'tmagan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning o'sib borishi sekin kechadi. Milliy iqtisodiyotlar va kompaniyalar oldida raqamli iqtisodiyot qiymatini o'lchash birmuncha qiyinchilik tug'dirmoqda, buning asosiy sabablaridan biri sifatida quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin. Birinchidan, raqamli iqtisodiyotning keng tarqalgan ta'rifi va aniq o'lchov mexanizmi mavjud emas. Ikkinchidan, uning ildizi (kaliti) bo'yicha ishonchli statistika tarkibiy qismlar va o'lchamlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, ma'lumotlar yetishmayapdi. Bir qator mamlakatlar raqamli iqtisodiyotni boshqarish tezkorlik jarayonlarini o'lchash va uning statistik hisobotlarini yuritish mexanizmlarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Bu dastur juda katta bilim va malaka talab qilmoqda.

Bugungi kunda ayrim milliy iqtisodiyotlarning YaIM tarkibida raqamli iqtisodiyotning ulushi o'rtacha 4,5 dan 15,5 foizgacha baholanmoqda. Qo'shilgan qiymatga nisbatan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori, Qo'shma Shtatlar va Xitoy birgalikda dunyoning deyarli 40 foizini tashkil etadi. Yalpi ichki mahsulotning ulushi sifatida ushbu sohada eng katta hisoblanadi Xitoy, Irlandiya va Malayziyaning qator viloyatlarida. AKT sohasida global ish bilan bandlik keyingi yillarda oshib bormoqda masalan, 2010 yilda 34 milliondan 2019 yilga kelib 43 milliongacha yetdi.

Adabiyotlar sharhi.

Raqamli platformalar va ularning iqtisodiyot, ijtimoiy muhit hamda xavfsizlikka ta'siri so'nggi yillarda global miqyosda keng o'rganilmoqda. Dastlabki tadqiqotlar, jumladan, OECD (2020), World Bank (2021) hamda McKinsey Global Institute (2019) hisobotlarida raqamli

iqtisodiyotning o'sish tendensiyalari va bu yo'ldagi muammolar atroficha yoritilgan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli transformatsiya va statistik baholash mexanizmlarining yetarlicha shakllanmagani alohida ta'kidlanadi (Ilyosov va Kurpayanidi, 2021). Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar va Ayupov va Boltaboevaning "Raqamli iqtisodiyot asoslari". Ushbu darslikda raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, kichik biznesda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Sh. Ergashevaning "Raqamli xizmatlar va platformalar kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish asosi" nomli maqolasida raqamli xizmatlar va platformalarning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan (Eliboyev va Rustamov, 2024). Iqtisodiyotda raqamli platformalarni o'rni va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berishgan. Albatta ushbu mavzuda juda ko'plab boshqa olimlarimiz va yosh tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarni olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

1. Tahliliy-uslubiy yondashuv (analitik metod): Raqamli platformalarning iqtisodiyot, xavfsizlik va ijtimoiy hayotga ta'siri, statistik ma'lumotlar va xalqaro hisobotlar asosida tahlil qilindi. YaIMdagi raqamli iqtisodiyot ulushi, AKT sektorining rivojlanishi, ish bilan bandlik statistikasi va xalqaro solishtirma tahlillar asos qilib olindi.

2. Taqqoslash (komparativ) usuli: Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi raqamli transformatsiya sur'atlari va uslublari o'zaro solishtirildi. Xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston uchun mos chora-tadbirlar belgilandi.

3. Empirik yondashuv: Internet firibgarligi, kiberjinoyatlar va algoritmik manipulyatsiyalar borasidagi real hayotdan olingan misollar empirik faktlar sifatida tadqiqotga kiritildi. "WannaCry", "Podesta email hack", "Deepfake" kabi voqealar asosida tahlillar olib borildi.

4. Kontent-tahlil: Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan yolg'on ma'lumotlar, soxta akkauntlar va firibgarlik sxemalarining kontentiga asoslangan holda ulardan kelib chiqadigan tahdidlar tahlil qilindi.

5. Ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish: Tadqiqot davomida aniqlangan xavf turlari asosida O'zbekiston sharoitida elektron tijorat va raqamli platformalarni xavfsiz rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli platformalardan foydalanishda vujudga keladigan xatarlarning turli xil ko'rinishlari mavjud. Ijtimoiy muhit xatarlar bu firibgarlik (scam), ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlarning tarqalishi, onlayn bezorilik (cyberbullying). Platformalardagi kontentni moderatsiya qilishning samaradorligini baholash. Yolg'on ma'lumotlarni aniqlash uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Platformalardan noxolis foydalanish. Soxta akkauntlar, manipulyatsion algoritmlar (foydalanuvchini ma'lum maqsadlar uchun yo'naltirish). Onlayn to'lovlar vaqtida firibgarlik, moliyaviy ma'lumotlarning o'g'irlanishi. To'lov tizimlarining himoya darajasini baholash va xavfsizlik sertifikatlarini tekshirish. Platformaning shaffofligini ta'minlash, foydalanuvchilarni ma'lumotdan oqilona foydalanishga o'rgatish. Algoritmlar tahlilini o'tkazish va ularning ishlash mexanizmlarini ommaga oshkor qilish. Psixologik va ijtimoiy salbiy ta'sirlar. Platformalarga qaramlik, ruhiy bosim. Foydalanuvchilarning platformalardan foydalanuvchanlik statistikasi asosida salbiy oqibatlarni tahlil qilish. Salbiy oqibatlarni kamaytirish bo'yicha ma'rifiy dasturlarni tashkil etish. Shubhali operatsiyalarni avtomatik ravishda aniqlovchi tizimlarni joriy etish.

Xalqaro tajribani o'rganish natijasida, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan vazifalarni ikki qismga ajratib olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Bugungi kunda O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalar. Bularga logistika va tezkor yetkazib berish tizimlarini rivojlantirish, aloqa xizmatlari sifatini yaxshilash va qamrab olish darajasini kengaytirish, to'lov tizimlarini kengaytirish. PayPal kabi xalqaro to'lov tizimlariga qo'shilish onlayn do'konlarda ovozli qidiruv funksiyasini joriy etish kiradi.

2. Elektron tijoratni rivojlanishi natijasida O'zbekistonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish maqsadida hozirdan shakllantirib borishi zarur bo'lgan vazifalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: aholining real daromadlarini barcha mintaqalarda bir xil o'sishini ta'minlash, logistika bo'yicha katta hamda kichik korxonalarni ko'proq ochilishini ta'minlash, barcha mintaqalarni to'liq aloqa xizmatlari bilan qamrab olish; tizim ustidan qonuniy nazorat muammosi, elektron tijorat rivojlangan mamlakatlarda bu muammo allaqachon vujudga kelgan. Mahsulot sifati muammolari, Internet tarmog'ida sotuvchi ham, xaridor ham anonim bo'lganligi va mahsulotni bevosita ko'rmasligi tufayli mahsulotlarning real sifati Internet tarmog'ida ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin.

Internet firibgarlikning ayrim turlari bilan tanishib chiqamiz.

1. Fishing (inglizcha fishing "baliq ovlash") - bu internetdagi firibgarlikning bir turi bo'lib, uning maqsadi foydalanuvchilarning maxfiy ma'lumotlarini, ya'ni login va parollarni qo'lda kiritish. Hozirgi kunda fishingning asosiy maqsadi - plastik kartadagi ma'lumotlarni qulga kiritish va unday o'z maqsadida foydalanish hisoblanadi.

2. Internet-tilamchilik. Internetda kasal bolalarga moliyaviy yordam so'rovchi xayriya tashkilot, bolalar uyi yoki boshqa shu kabi tashkilotlarning e'loni chiqishi mumkin. Internet firibgarlar haqiqiy xayriya saytlarning dublyor-saytini yaratadilar va pul o'tkazmalarning rekvizitlarini o'zgartirib quyadilar. Aldanib qolmaslik va pulingizni firibgarlar qo'lga bermaslik uchun, ko'rsatilgan tashkilotga qayta qo'ng'iroq qilish, hisob raqamini tekshirish yoki shaxsan tashrif buyurish uchun dangasalik qilmaslik kerak, ma'lumotlarning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilib, ishning barcha tafsilotlarini bilgan holda, pulni o'tkazish o'tkazmaslikka qaror qilish lozim.

3. Chet el fuqarolariga nisbatan firibgarlik (nikoh firibgarlik).

Haqiqiy hayotda o'z umr yuldoshlarini topmaganligi sababli ko'p erkaklar ularni internet saytlarida qidirishni davom etadilar. Qidiruvlar turli tanishuvlar tanishuv saytlarida boshlanadi, bu yerda qizlar o'zlarining fotosuratlarini joylashtiradilar.

4. Raqamli platformalardan foydalanish bilan bog'liq kiberjinoyatlar zamonaviy davrda keng tarqalgan.

Quyida turli yo'nalishlardagi kiberjinoyatlarga real hayotdan misollar keltiriladi:

1. Fishing (aldov orqali ma'lumot olish)

Misol: 2016 yilda "Podesta email hack" voqeasi yuz berdi. Xakerlar Google'dan kelgan soxta e-mail yordamida Jon Podesta (AQSh siyosatchisi)ning Gmail hisobiga kirishdi va minglab shaxsiy e-maillarni o'g'irlab, ularni ommaga tarqatdi. Xavfi: Bu usul orqali foydalanuvchilarning login, parol yoki kredit karta ma'lumotlari qo'lga kiritiladi.

2. Ransomware (fidyaga olinuvchi dasturlar) Misol: 2017 yilda "WannaCry" dasturi orqali xakerlar minglab kompyuterni bloklab, ma'lumotlarni ochish uchun foydalanuvchilardan pul talab qilishdi. Ushbu hujum dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlariga zarar yetkazdi. Xavfi: Tizimlar ishlashdan to'xtaydi va moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

3. Soxta onlayn do'konlar va moliyaviy firibgarliklar.

Misol: COVID-19 pandemiyasi davrida odamlarni aldash uchun soxta onlayn dorixonalar yaratildi. Ular foydalanuvchilardan to'lovlarni oldindan qabul qilib, mahsulotlarni yetkazib bermaslikni odat qildi. Xavfi: Foydalanuvchilarning nafaqat pullari, balki moliyaviy ma'lumotlari ham o'g'irlanishi mumkin.

4. Shaxsiy ma'lumotlarning ommaviy tarqalishi.

Misol: 2019 yilda Facebook ma'lumotlar bazasi xakerlar hujumiga uchradi va 533 milliondan ortiq foydalanuvchining telefon raqamlari va boshqa shaxsiy ma'lumotlari tarqaldi. Xavfi: Shaxsiy ma'lumotlar noqonuniy ishlatilishi yoki sotilishi mumkin.

5. Soxta akkauntlar orqali ijtimoiy manipulyatsiya.

Misol: 2016 yilgi AQSh prezidentlik saylovlari paytida "Internet Research Agency" (Rossiyadagi tashkilot) tomonidan minglab soxta ijtimoiy media akkauntlari ochilib, fuqarolarning qarorlariga ta'sir ko'rsatish maqsadida yolg'on ma'lumotlar tarqatildi. Xavfi: Bu demokratik jarayonlarga va jamoatchilik fikriga salbiy ta'sir qiladi.

6. Ijtimoiy tarmoqlardagi do'stlik firibgarligi

Misol: Bir necha yil oldin LinkedIn orqali professional aloqalarni soxtalashtirish hollari kuzatildi. Xakerlar nufuzli kompaniyalar vakillari nomidan foydalanuvchilar bilan aloqaga kirishib, ularning moliyaviy ma'lumotlarini o'g'irlashgan. Xavfi: Ishbilarmonlik tarmog'ida ishonchga putur yetadi va moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

7. Kriptovalyuta bilan bog'liq firibgarliklar

Misol: 2021 yilda Twitter'da yirik firibgarlik amalga oshirildi. Elon Musk va boshqa taniqli shaxslarning akkauntlari buzilib, kriptovalyutaga investitsiya qilish uchun yolg'on takliflar tarqatildi. Foydalanuvchilarning 100 000 AQSh dollari atrofida mablag'i o'g'irlab ketildi. Xavfi: Foydalanuvchilarning ishonchi suiiste'mol qilinadi va katta moliyaviy zarar yetkaziladi.

8. IoT (Internet of Things) qurilmalariga hujumlar

Misol: 2016 yilda "Mirai botnet" xakerlik dasturi yuzlab ming IoT qurilmalarni (kameralar, routerni) buzib, ularni DDoS hujumlariga ishlatdi. Natijada yirik veb-saytlar va platformalar ishdan chiqdi. Xavfi: Qurilmalar noqonuniy maqsadlarda ishlatilishi yoki foydalanuvchi maxfiyligiga putur yetishi mumkin.

9. Sun'iy intellekt va yuzni tanish tizimlaridan foydalanish.

Misol: Deepfake texnologiyasi orqali mashhur shaxslarning soxta videolari yaratilib, ular noqonuniy yoki noxolis maqsadlarda tarqatilgan. Bu, jumladan, siyosiy manipulyatsiya uchun ishlatilgan. Xavfi: Ommaviy axborot vositalariga bo'lgan ishonch kamayadi va odamlarning obro'siga zarar yetadi.

10. O'yin platformalaridagi firibgarliklar. Misol: Ko'plab onlayn o'yinlar, masalan, "Fortnite", o'yin ichidagi xaridlar orqali foydalanuvchilarning kredit karta ma'lumotlarini o'g'irlaydigan xakerlar uchun nishonga aylangan. Xavfi: Yosh foydalanuvchilar moliyaviy yo'qotishlarga uchraydi va onlayn o'yinlarga bo'lgan ishonch pasayadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda onlayn tijorat hamda raqamli platformalardan foydalanish chog'ida turli-xil xatarlarga duch kelinmoqda. Ushbu salbiy illatlarni oldini olish maqsadida quyida taklif va tavsiyalarni berib o'tamiz:

➤ Ma'lumotni shifrlash, platformalar shaxsiy ma'lumotlar uchun kuchli shifrlash algoritmlarini joriy etishi kerak.

➤ Xavfsizlik bo'yicha treninglar, poydalanuvchilar kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganishi zarur.

➤ Kiberpolitsiya faoliyati, xalqaro hamkorlikda kiberjinoyatlarni aniqlash va oldini olishni kuchaytirish.

➤ Xavfsizlik tizimlarini muntazam tekshirish, barcha platformalar uchun xavfsizlik siyosatini yangilash.

➤ Raqamli savodxonlikni oshirish, jamiyatda raqamli texnologiyalardan xavfsiz foydalanish bo'yicha keng qamrovli treninglar o'tkazish.

➤ Kiberhujumlarni oldindan aniqlash, innovatsion texnologiyalarga asoslangan monitoring tizimlarini yo'lga qo'yish.

➤ Huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, firibgarlik va noqonuniy xatti-harakatlar uchun jazo choralarini belgilash.

Adabiyotlar/Литература/References:

Eliboyev A., Rustamov B. (2024) *Iqtisodiyotda raqamli platformalarni o'rni va ahamiyati. "Innovations in Science and Technologies" scientific electronic journal №8.*

Ilyosov A., Kurpayanidi K. (2021) *Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral.*

Texnoman. (2018). *Internetdagi firibgarlik va qalobliklar - Texnoman.uz. [online] Available at: <https://www.texnoman.uz/post/internetdagi-firibgarlik-va-qalobliklar.html>*

Murodova M. Rahmonov N., Mingboyev H.. (2021) *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsiya. «Scientific progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 //Volume: 1, ISSUE: 6. B.730.*

TAdviser.ru. (n.d.). *TAdviser - портал выбора технологий и поставщиков. [online] Available at: <https://www.tadviser.ru>.*